

**YAPONIYA TAJRIBASIDA TANQIDIY FIKRLASHNI
RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI**

Magstir. Murodova Aziza Sobirjonovna

Email: Murodovaaziza442@gmail.com

[Tel: +998 91 453 98 94](tel:+998914539894)

Qashqadaryo, O'zbekiston

Annotatsiya: *Texnologiyalar ta'sirida rivojlangan zamonaviy hayotimizda tanqidiy fikrlash jamiyatdagi muhim intellektual ko'nikmalardan biri hisoblanadi. U o'quvchilarning akademik yutuqlarga erishishida, turli xil masalalarga ijodiy yechim topish qobiliyatini rivojlantirishda va ma'lumotlarni tahlil qilishda, ularni ishonchli va ishonchsiz ekanligini tushunib yetishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tezisda tanqidiy fikrlash qobiliyatining ahamiyati hamda Yaponiya ta'lim tizimida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan strategiyalar tahlil qilinadi. Yaponiya ta'lim tizimining an'anaviy shakli asosan ma'lumotlarni yodlash va intizomga asoslangan bo'lsa-da, so'nggi yillardagi ta'lim islohotlari asosan mustaqil fikrlay oladigan va har qanday jarayonga ijodiy yondashuvchi shaxslarni tarbiyalashni asosiy maqsad qilib olgan va ushbu islohotlar orqali ijobiy natijalarga erishilmoqda. Ushbu tezisda O'zbekiston ta'lim tizimida Yaponiya tajribasini tatbiq etish imkoniyatlari va istiqbollari qisqacha to'xtalib o'tiladi.*

Kalit so'zlar: *tanqidiy fikrlash, hamkorlikda o'rganish, muammoli o'qitish, refleksiya, Yaponiya strategiyasi.*

Kirish: Bugungi texnologiyalashtirilgan hayotimizda o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. O'quvchilar nafaqat ma'lumotlarni eslab qolishga harakat qilishi, balki ularni tahlil qilish, xolisona baholash va mantiqiy xulosalar chiqarish qobiliyatini ham rivojlashtirishga harakat qilishlari lozimdir. O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida tanqidiy fikrlash qobiliyati talabalarning akademik yutuqlarini oshirish, noto'g'ri

va ishonchsiz ma'lumotlarni aniqlash shuningdek, kreativ yechimlarni topish kabi hayotiy ko'nikmalarini shakllantiradi. Shu bois bugungi kunda tanqidiy fikrlash qobiliyatiga nafaqat shaxsiy kompetensiya, balki butun jamiyatning taraqqiyotini ta'minlovchi strategik ehtiyoj sifatida qaraladi.

Ta'limdagi tanqidiy fikrlash – bu bilimni yangi usularda qo'llash orqali kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi tizimli fikrlash va tahlil qilish jarayonidir. Shuningdek, tanqidiy fikrlashga savol berish oqali masalani oydinlashtirish, chalkashlikni oldini olish jarayoni sifatida ham qaraladi. Ammo McPeck (2016) esa o'zining ilmiy asarlarida tanqidiy fikrlash savol berish bilan cheklanmasligini, chunki aksariyat savollar shunchaki ma'lumot olishga qaratilgan ekanligini ta'kidlaydi. Shu bilan bir qatorda, akademik adabiyotlarda ko'rishimiz mumkin bo'lgan “yaxshi fikrlash” va “samarali fikrlash” atamalari ham “tanqidiy fikrlash” atamasi bilan chambarchas bog'liq hisoblanadi. Tanqidiy fikrlashning ahamiyati jamiyatda muhim bo'lganligi sababli ham ayni vaqtda ta'lim sohasida o'tkazilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi tanqidiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan. Jumladan, yaponiya ta'lim sohasida qo'llanilayotgan yangi strategiyalar buning yorqin isboti bo'la oladi.

Yaponiya ta'lim tizimida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish strategiyalari

1. Muammoli o'qitish (Problem-based learning)

Yaponiyada o'qituvchilar muammoli o'qitish metodini talabalarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun qo'llanadilar. Ushbu jarayonning mazmun-mohiyati quyidagicha tavsiflanadi: o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga real hayotiy voqealarga asoslangan muammoli vaziyatlar yoritilgan masalalar beriladi. Va o'qituvchi talabalarni fikrlashga, masalani tahlil qilishga va yechim topishga undaydi.

2. Refleksiya jarayoni

Har bir dars yakunida talabalar “hansei” (o'z-o'zini tahlil qilish) deb nomlanuvchi refleksiya jarayonidan o'tadilar. Ushbu metodika yapon ta'lim

madaniyatining ajralmas qismi bo'lib, o'quvchilarni xatolar ustida o'ylashga va o'z o'sishini baholashga o'rgatadi.

3. O'qituvchining yo'naltiruvchi yo'li

Yaponiyada o'qituvchilar asosan bilim beruvchi emas, balki "facilitator" (yo'naltiruvchi) sifatida faoliyat olib boradi. Ular dars jarayonida o'quvchilarda uyg'ongan savollarga tayyor javobni to'g'ridan-to'g'ri bermaydi, aksincha, savollar orqali ularni mustaqil tahlil qilish va xulosa chiqarishga undaydi.

4. Hamkorlikda o'rganish (Collaborative learning)

Yaponiya sinfxonalarida foydalaniladigan eng muhim metodlardan biri bu – hamkorlikda o'qish. Dars davomiyligida o'quvchilar kichik guruhlariga bo'linadi va jamoada ishlash orqali ijtimoiy muloqot, fikr almashinish va tanqidiy baholashni o'rganadilar. Ushbu metod nafaqat talabalarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini, balki muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirishda eng foydali usul hisoblanadi.

Bugungi kunda O'zbekiston ta'lim tizimida ham yangi islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, yapon modelining quyidagi jihatlarini sinfxonalarida ko'rishimiz mumkin:

- O'quvchilarda mustaqil fikr bildirish va tahliliy yondashuvni rag'batlantirish
- Hamkorlikda o'qish
- O'qituvchining yo'naltiruvchi yo'li

Shuningdek, qisqa fursatlarda refleksiya jarayoni va muammoli o'qitish metodlarini keng ko'lamda qo'llash ham rejalashtirilmoqda. Hatto, ayrim pedagoglar ushbu metodlardan foydalanmoqda.

Xulosa: Yaponiya talim tizimidagi tajribalar shuni ko'rsatadiki, o'quvchining faol ishtiroki tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda asosiy omil hisoblanadi. O'zbekiston ta'lim sohasida ham Yaponiya strategiyalardan foydalanish nafaqat yosh avlodning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda yordam beradi, balki tafakkur madaniyatini shakllantirishda ham ijobiy o'zgarishlarga sababchi bo'ladi va inovatsion g'oyalarni ilgari suruvchi

shaxslarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

American Psychological Association. (2023). Critical thinking skills and academic achievement. <https://www.apa.org>

Lewis, C. (2015). Lesson Study and Hansei in Japanese Education. Journal of Educational Change.

McPeck, J. E. (2016). Critical thinking and education. Routledge

UNESCO. (2023). Media and information literacy in the digital age. <https://www.unesco.org>

Yoshida, M. (2019). The Role of Teachers in Developing Students' Critical Thinking Skills in Japan. International Journal of Educational Research
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15252884>